# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra*

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

NAMANGAN VILOYATI

UZSTAT

STATISTIKA BOSHQARMASI



# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

**Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar** — **31 540** — 120,0 %

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar** — **30 568** — 119,5 %

**Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020- yilda)** — **5 913** — 112,4 %

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. O’z o’rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o’z shaxsiy biznesini yo’lga qo’yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)*



# Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha*
*2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

**17 698** — Mas’uliyati cheklangan jamiyat

**913** — Oilaviy korxona

**143** — Unitar korxona

**7 188** — Xususiy korxona

**23** — Aksiyadorlik jamiyati

**413** — Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida)*




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(yanvar-noyabr oylarida)*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

*(2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

**27 063** ro‘yxatdan o‘tgan
- **1 548** kichik korxonalar
- **25 515** mikrofirmalar

**26 241** faoliyat ko‘rsatayotgan
- **1 531** kichik korxonalar
- **24 710** mikrofirmalar

**5 797** 2020- yilda yangi tashkil etilgan
- **78** kichik korxonalar
- **5 719** mikrofirmalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Oilaviy korxonalar soni

*(1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko‘ra 971 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 464 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 913 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 418 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 457 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 256 taga yoki 227,3 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

## Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko‘ra 18 120 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4 178 taga yoki 130,0 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 698 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4 011 taga yoki 129,3 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 329 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 660 taga yoki 118,0 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

*(2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra 262 tani tashkil etib, ulardan 256 tasi yoki 97,7 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 39 taga yoki 117,5 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 42 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)*



# O‘zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

*(2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



| | Jami | *shundan:* | |
|---|---|---|---|
| | | qo‘shma korxona | xorijiy korxona |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **52** | 41 | 11 |
| **Qozog‘iston Respublikasi** | **13** | 9 | 4 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **42** | 24 | 18 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **9** | 8 | 1 |
| **Tojikiston Respublikasi** | **9** | 7 | 2 |
| **Turkiya Respublikasi** | **33** | 15 | 18 |
| **Hindiston Respublikasi** | **9** | 2 | 7 |
| **Janubiy Koreya Respublikasi** | **29** | 21 | 8 |
| **Singapur Respublikasi** | **5** | 3 | 2 |
| **Eron Islom Respublikasi** | **3** | 1 | 2 |

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni

*(2020- yil 1- dekabr holatiga koʻra, birlikda)*



| | Jami | shundan: | |
|---|---|---|---|
| | | qoʻshma korxona | xorijiy korxona |
| **Namangan viloyati** | **256** | 166 | 90 |
| **Namangan shahri** | **74** | 46 | 28 |
| **Mingbuloq** | **7** | 2 | 5 |
| **Kosonsoy** | **26** | 21 | 5 |
| **Namangan** | **16** | 15 | 1 |
| **Norin** | **10** | 6 | 4 |
| **Pop** | **26** | 17 | 9 |
| **To’raqo’rg’on** | **20** | 12 | 8 |
| **Uychi** | **18** | 15 | 3 |
| **Uchqo’rg’on** | **6** | 2 | 4 |
| **Chortoq** | **20** | 12 | 8 |
| **Chust** | **21** | 12 | 9 |
| **Yangiqo’rg’on** | **12** | 6 | 6 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat koʻrsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 74 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 28,9 %), Kosonsoy, Pop 26 tadan (10,2 %dan), Chust 21 ta (8,2 %), To’raqo’rg’on 20 ta (7,8 %), Chortoq 20 ta (7,8 %) hamda Uychi 18 tani (7,0 %) tashkil etadi.

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (34,2 %), Chust (8,3 %), Namangan (7,1 %), Uychi (6,6 %), Pop (6,3 %), Kosonsoy, To’raqo’rg’on (6,1%dan), Uchqo’rg’on (5,7 %), Chortoq (5,4 %), Yangiqo’rg’on (5,2 %), Norin (4,6 %), Mingbuloq (4,4 %) hissalariga to‘g‘ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)*

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (22,9 %), Pop (9,1 %), Chust (8,5 %), Uychi (8,1 %), Namangan (7,6 %), To'raqo'rg'on (7,3 %), Uchqo'rg'on (6,7 %), Chortoq (6,4 %), Yangiqo’rg’on (6,1 %) Kosonsoy (6,0 %), Norin (5,7 %) va Mingbuloq (5,6 %) hissalariga to‘g‘ri keladi.



# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

*(2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




## Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

*(2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (38,6 %), Uychi (7,3 %), Pop (6,7 %), Namangan (6,6 %), Chortoq (6,2 %), Kosonsoy (5,9 %), Chust (5,4 %), Yangiqo’rg’on (5,2 %), Norin, To’raqo’rg’on (4,9 %dan), Uchqo’rg’on (4,7 %) va Mingbuloq (3,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*






2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni

*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)*






2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Namangan (24,1 %), To'raqo'rg'on (14,7 %), Yangiqo'rg'on (14,4 %), Chortoq (10,3 %), Uchqo'rg'on (9,6 %), Uychi (9,0 %), Namangan shahri (7,9 %), Kosonsoy (3,5 %), Chust (2,6 %), Mingbuloq (2,2 %), Norin (1,5 %), Pop (0,2 %) tumanglari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)*




*O'tgan yilga nisbatan % da*



## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** ‒ axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar** ‒ ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** ‒ ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** ‒ ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** ‒ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyati Statistik registrlarni yuritish bo’limi**
**Tel.:69-227-84-96**